

**Farg‘ona davlat universiteti
Tilshunoslik kafedrası, PhD, Alimova
Zarifa taqrizi ostida**

**Abdikunduzova Sadoqat Saminjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi
Telefon raqami: +998 77 270 25 80
e-mail:hikmatillo5600@mail.ru**

O‘ZBEK HARBIY QASAMYODIDA KOMISSIV NUTQIY AKTNING IFODALANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy akt tushunchasi hamda uning funksiyalari yoritib beriladi. Shu bilan bir qatorda, komissiv nutqiy aktning asosiy funksiyalaridan bo‘lgan komissiv (majburiyat aktlari) harbiylar qasamyodi misolida yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: Nutqiy akt, lokutiv, perlokutiv, illokutiv, deklarativ, reprezentativ, ekspressiv, direktiv, commissiv.

EXPRESSION OF THE COMMISSION SPEECH ACT IN THE UZBEK MILITARY OATH

Abstract: This article explains the concept of speech act and its functions. In addition, commissive (acts of obligation), which are the main functions of a commissive speech act, are explained on the example of a military oath.

Key words: Speech act, locative, perlocutionary, illocutionary, declarative, representative, expressive, directive, commissive.

ВЫРАЖЕНИЕ АКТА КОМИССИЙСКОЙ РЕЧИ В УЗБЕКСКОЙ ВОЕННОЙ ПРИСЯГЕ

Абстрактный: В данной статье раскрывается понятие речевого акта и его функции. Кроме того, на примере воинской присяги поясняются комиссивы (обязательственные действия), являющиеся основными функциями коммиссионного речевого акта.

Ключевые слова: Речевой акт, локатив, перлокутивный, иллокутивный, повествовательный, репрезентативный, экспрессивный, директивный, коммиссивный.

Bugungi kunda kommunikativ muloqot muammolarini o‘rganish tilshunoslik va unga bog‘liq bir qator sohalar, xususan, psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika kabi yo‘nalishlarning diqqat markazida turadi. Nutqni tadqiq etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri lingvistik pragmatika bo‘lib, u nutq faoliyatini til birliklaridan foydalanish va so‘zlovchilarning maqsadlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Bundan ko‘rinadiki, insonlar o‘rtasidagi nutqiy munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko‘rinishlari lingvopragmatika o‘rganish obyekti bo‘lib, uning XX asr ikkinchi yarmidagi rivoji shu davrda shakllangan nutqiy akt nazariyasining lingvofalsafiy ta‘limot sifatida shakllanishi bilan bog‘liq.

Nutqiy akt tushunchasining tilshunoslikka kirib kelishida amerikalik olim, pragmatika asoschisi Ch.S.Pirsning tilga mantiqiy-falsafiy kategoriya deb qarashi asos bo‘lgan. Nutqiy aktning dastlabki rivojlangan nazariyasi L.Vitgenshteyn tomonidan ishlab chiqilgan. U nutq turli maqsadlarni ifodalashini va nutq o‘z egasidan ajralmagan holda tahlil qilinishi kerakligi g‘oyasini ilgari surib, uni “til o‘yinlari” misolida tushuntiradi. Lingvistik falsafa maktabi vakillari J.Ostin va J.R.Searl ushbu ta‘limot poydevorini yaratgan L.Vitgenshteyn, Ch.S.Pirs va uning

semiotika sohasidagi eng mashhur izdoshi C.Morris g'oyalarini rivojlantirib pragmatik funksiyalar nazariyasini ishlab chiqdilar.

Ularning tadqiqotlari asosida tilni harakat sifatida tushunish yotadi. Nutq akti uzoq vaqt davomida pragmatik tahlil birligi hisoblanib, bu nazariyaning o'rganish ob'ekti nutq akti, ya'ni ma'lum bir muloqot sharoitida tinglovchiga murojaat qilgan so'zlovchining nutqi, nutqda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutq harakatidir. Ingliz faylasufi J.Ostin va amerikalik olimlar J.Serl va G.Gris ushbu nazariyaning asoslarini ishlab chiqdilar. Ular birinchi marta fikrni aytish nafaqat ma'lumot uzatish, balki boshqa ko'plab harakatlar (tabriklash, ishontirish, ogohlantirish va boshqalar) bo'lishi mumkinligini ta'kidladilar. Va nihoyat, 1950-yillarning o'rtalarida J.Ostin nutqiy aktlarni nisbatan mukammal mezonlarini ishlab chiqdi. Unga ko'ra aloqa birligi gap yoki matn faqatgina xabar emas, balki savol, tushuntirish, ogohlantirish, tavsif, minnatdorchilik, pushaymonlik kabi nutqiy harakatlarni bajaradi. J.Ostin nutq akti bilan bog'liq fikrlarini "How to Do Things Words" ("So'zlar bilan qanday ishlash kerak") asarida keltiradi [1].

Nutqiy aktlar masalasi kontekst bilan bog'liq tushunchalar sifatida pragmatikaning markaziy muammolaridan biri sanaladi. Nutqiy aktlar mazmuniy strukturaning elementlaridir. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari sanalgan darak, so'roq, buyruq kabi paradigmatic qatorni kontekst talabidan kelib chiqib iltimos, minnatdorlik, tahdid, qo'rqitish, ehtirom kabi qator mazmuniy strukturalar bilan davom ettirish mumkin. Pragmalingvistika sohasining yuzaga kelishi nutqiy aktlar haqidagi muammolarning dolzarblashishini ta'minlaydi [2.36].

Ostinning ta'kidlashicha, ingliz tilida tasdiqlash, tavsiflash, ogohlantirish, eslatish, sharhlash, buyruq berish, so'rash, tanqid qilish, kechirim so'rash, ma'qullash, salomlashish, va'da berish, afsuslanish kabi harakatni bildiruvchi fe'llarning mingdan ortiq turi mavjud. J. Ostinning nutqiy akt nazariyasiga qo'shgan xizmati shundaki, u nutqqa ma'lum fonetik, semantik va sintaktik qoidalarga muvofiq qurilgan va atrofda voqelikdagi vaziyatni aks ettiruvchi umume'tirof etilgan belgilar birikmasi sifatida emas, balki shaxsning mahsuli sifatida qaragan. U so'zning yaratilishi, so'zlovchining shaxsiy fazilatlarini tufayli yuzaga kelishini, ya'ni uni ishlab chiqaruvchi bo'lmish nutq sub'ektiga bevosita bog'liq ekanligi g'oyasini ilgari suradi. J.Ostin nutq jo'natuvchisi va qabul qiluvchisi shaxslari ham bunda asosiy rol o'ynashini va maqsad faktik ma'lumotlarni uzatish emas, balki uni talqin qilishga qaratilishini ta'kidlaydi. J. Ostin jumla faqat narsalarning holatini "ta'riflashi" yoki "biror fakt haqida nimanidir bayon qilishi" emas, balki insonlar ishlatadigan iboralar butunlay boshqacha maqsadda qo'llanishini izohlaydi. U: "Biz buyruq berishimiz, kechirim so'rashimiz, va'dalar berishimiz, taxminlar qilishimiz, kimnidir ogohlantirishimiz, ayblashimiz, salomlashishimiz – bir so'z bilan aytganda, til yordamida turli harakatlarni bajarishimiz mumkin-deydi" [3].

Ilgari, til faqat voqelikni tasvirlash uchun xizmat qiladi, nutq esa voqelikka faqat bilvosita ta'sir qilishi mumkin deb qaralgan. Ostin nazariyasi asosida til faqat voqelikni tasvirlabgina qolmay, balki harakatni ham bajarishi yotadi va maqsadlilik va shartlilik nutq aktining asosiy xususiyatlari deb qaraladi. Jon Ostin Solonning mashhur qadimiy "So'z - bu o'ziga xos ishdir" iborasiga tayangan holda quyidagi fikrlarini bildiradi: "Ma'lum bir gaplarning ma'lum bir sharoitda aytilishi qandaydir harakat, ishning bajarilishi bilan barobardir"-deydi va nutq aktining uchta komponentga bo'ladi: lokutiv, illokutiv, perllokutiv. Lokutiv- bu aslida gapirish, bayonotni talaffuz qilish harakati; Illokutiv- bu adresatga ta'sir qilish maqsadida aytilgan bayonot; bu bosqichda so'zlovchining kommunikativ niyati amalga oshadi; Perllokutiv-bu nutq harakatini bajarish natijasida erishilgan ta'sir, ya'ni nutqning yagona darajalaridan biri bo'lib, uning bajarilishi adresatga bog'liq[4].

Nutqiy aktlar soʻzlovchi tomonidan aytilgan nutq tinglovchi ruhiyatiga qay darajada taʼsir etishiga qarab J. Syorl tomonidan beshta asosiy kategoriyalar (declaratives, representatives, expressives, directives, commissives)ga ajratilgan. [5. 25].

Deklarativ nutqiy aktlar(declaratives). Deklarativ nutqiy aktlar inson ongida portlash(katta oʻzgarish) sodir etadigan hayotida tub burilish yasaydigan jarayonga sabab boʻladi. Ushbu jarayonning ijobiy va salbiy koʻrinishlari mavjud.

Reprezentativ nutqiy aktlar(representatives). Ushbu nutqiy akt insonning hissiy kechinmalari bilan bogʻliq boʻlib, unda soʻzlovchi qalbida bir bir holat sodir boʻlishiga ishonch, tasdiq va aniq jarayonga nisbatan vujudga keladi.

Ekspressiv nutqiy aktlar(expressives). Ekspressiv nutqiy aktlar tilshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Nutqiy akt soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi psixologik jarayonlar(kechirim soʻrash, shikoyat qilish, xushomad, maqtov, xafa boʻlish, hayratlanish va tabriklar va.h.k)ni oʻzida aks ettiradi.

Kommissiv nutqiy aktlar. (commissives). Direktiv nutqiy akt jarayonidan kelib chiqqan, kelajakda bajarilishi soʻralgan yoki talab etilgan holatlarda ikkinchi shaxs tomonidan ushbu vazifani bajarishga rozilik bildirish, vaʼda berish yoki rad etish jarayoni kommissiv nutqiy akti orqali bayon etiladi. Kommissive nutqiy akti kuchli yoki kuchsiz holatda yuzaga chiqadi. Misol uchun, maʼlum bir vazifani bajarishga bel bogʻlashda “vaʼda beraman” soʻz birikmasi gapga qoʻshimcha maʼno yuklasa, rad etish jarayonida, “aslo yoʻq”, “hech qachon” soʻz birikmalari va shu bilan birga bazi frazeologik birliklar(“Tuya hammomni orzu qilibdi”, “Tushingni suvga ayt”, “Chuchvarani hom sanabsan”) kuchli rad etishga urgʻu berishda yordam beradi [6].

Kommissivlar soʻzlovchini baʼzilariga topshiradigan gaplardir harakat kursi xususiyati. Kommissiv nutqiy aktlar - bu nutqiy harakatlarning bir turi soʻzlovchi kelajakdagi baʼzi harakatlarga oid niyatini bildiradi. Baʼzan, kimdirga aytib, kelajakda biror narsa qilishni xohlaydi vaʼda, tahdid, ogohlantirish yoki rad etish kabi narsalar. Nutq harakatlarida ular kommissivlar deyiladi. Ostin (Searle, 1979:11) taʼkidlaganidek, majburiyat, maʼlum bir harakat yoʻnalishi boʻyicha maʼruzachi majburiyatni bajarishidir. Aniq misollardan baʼzilari: vaʼda, nazr, garov, ahd, shartnoma, kafolat, quchoqlash va qasamda koʻrishimiz mumkin. Ekspressiv nutqiy harakatlar nutqiy harakatning soʻzlovchini harakatga keltirishini bildiradigan kelajakdagi harakat; soʻzlovchining kelajakda biror narsa qilishga oʻzini oʻzi majburlashini bildiradigan harakat. [6.20].

Kommissiv nutqiy aktning harbiylar qasamyodida koʻrishimiz mumkin. Masalan, “Men, (famiyasi, ismi, otasining ismi), Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, Oʻzbekiston Respublikasini himoya qilishga, xalqimga, Prezidentimga sodiq boʻlishga tantanali ravishda qasamyod qilaman.

Qasamyodning bu qismida harbiy kelgusida Oʻzbekiston Respublikasini himoya qilishga va xalqiga sodiq boʻlishga qasamyod orqali vaʼda beryapti.

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlarini muqaddas bilib, ularga rioya etishga, harbiy nizomlarni, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini soʻzsiz bajarishga, harbiy intizomga qatʼiy rioya qilishga, halol, jasur va sergak jangchi boʻlishga qasamyod qilaman.

Shuningdek, qasamyodning bu qismida **kuchli tarzda** ifodalangan kommissiv nutqiy akti ifodalangan.

Soʻnggi nafasim qolguncha oʻz Vatanimning sadoqatli farzandi boʻlib qolishga, harbiy

xizmatning butun mashaqqati va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat sirini va harbiy sirni saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.

Jonajon O‘zbekistonimning nurli istiqboli uchun uning davlat manfaatlari va mustaqilligining munosib himoyachisi bo‘lishga qasamyod qilaman.

Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan eng og‘ir jazoga va xalqimning nafratiga muhtalo bo‘lay”[7].

Qasamyod to‘liq kuchli va‘da nutqiy akti orqali ifodalangan. Shu jumladan, harbiyning kelajakdagi xalqi va vatani oldidagi burchi hamda xalqning unga va uning vatanni qo‘riqlashiga va himoya qilishi, vataniga sodiq xizmat qilishiga bo‘lgan ishonchi yotadi.

Tilshunosligida nutq akti hodisalarini o‘rganish doimo dolzarb masala sifatida qaraladi va shu bilan birga nutqiy aktning lingvopragmatik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatni kasb etadi. Ularni nutq a‘zolari hisoblangan tinglovchi va so‘zlovchi o‘rtasida sodir bo‘layotgan nutqiy aktlarni tinglovchi ruhiyatiga qay darajada ta’sir etishiga qarab turli kategoriyalarda alohida-alohida tahlil qilish orqali tilning pragmalingsvistika sohasidagi ko‘plab tilsimlarini ochib berish imkoniga ega bo‘lamiz . Bu bilimlar tilning madaniyatlararo muloqot jarayonida va qiyosiy tipologiya sohaslarida yo‘lchi yulduz vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlarЖ

1. Дж Остин. How to Do Things Words// НЗЛ. Вып .XVII.-М.,1986.
2. Н.Махмудов ФАРФОНА ПРАГМАЛИНГВИСТИКА МАКТАБИ. Жамоавий монография; М.Ҳакимов. Нутқий акт назарияси. - Фарфона давлат университети, – 2022.
3. Дж Остин. How to Do Things// НЗЛ. Вып .XVII.-М.,1986.
4. Nasridinov, M., & Usmonova, D. (2022). EXPOSITION FUNCTIONS IN THE NOVEL" THE JUNGLE BOOK". International Journal Of Literature And Languages, 2(05), 22-28.
5. M.Nasriddinov NUTQIY AKTNING ASOSIY KATEGORIYALARI. ILMOS\UNDOV NUTQIY AKTI. Science and Innovation. International scientific journal. Volume 1 ISSUE 8. 907
6. NUR WAHYU PAMBUDI AN ANALYSIS OF COMMISSIVE SPEECH ACT USED IN THE VOW - ENGLISH LETTERS DEPARTMENT., 2017. 20-sh.
7. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikdayangi/harbiylarning_qasamed_matni_tasdiqlandi_va_pensiya_oshirildi